

INGLIZ TILI IDIOMALARINING O'ZBEK TILIDA TADQIQI

Parpiyev Obidjon Abdurazzoq o'g'li

*Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on tumani 107-umumiy o'rta ta'lim maktabi
Ingliz tili fani o'qituvchisi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10205987>

Annotatsiya – Maqolada ingliz badiiy adabiyotidagi idiomalarni o'zbek tiliga tarjimasidagi oziga xoslikni ya'ni birinchi navbatda, semantik, leksik va morfologik jihatdan maksimal darajada saqlash usullari yoritilgan. Shuningdek, idiomalarni tarjimasi mexanizmlari, tamoyillari, ma'no va tasvirni adekvat tarzda berish muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar – grammatika, idioma, ot, tarjima, fe'l, morfologiya, so'z, qonuniyat.

Ma'lumki, morfologiya so'z grammatikasi borasidagi fan sohasi bo'lib, u o'z mazmuniga so'z strukturasi, so'z o'zgartirish qonuniyatlari, grammatik kategoriyalar ifodalanishi tartiblari, so'z turkumlari hamda so'z yasash qonuniyatlarini o'z mazmuniga qamrab oladi [1]. Morfologiya va sintaksis til grammatikasini tashkil qiladi. Agar ingliz idiomalarini ta'kidlangan omillar asosida tahlil qiladigan bo'lsak, morfologiya va sintaksis jihatidan ham idiomalar va ular tarjimalarida o'xshashlikdan ko'ra, ma'lum farqlarning mavjudligi oydinlashadi. Ingliz idiomalari tarkibida o'z tuzilishida bosh ma'no anglatuvchi ob'yekt va uning morfologik tasnifiga ko'ra fe'l komponentli (to lie on smb's head – boshiga tushmoq; to pass over one's head –

boshidan o'tmoq; one's eyes fall upon – ko'zi tushmoq), ot komponentli idiomalarni (pumpkin heads –

qovoq kalla; a bad /biting, bitter, cfustic, dangerous, venomous, wicked shrewed/ tongue – tili o'tkir

/achchiq, zahar, shavqatsiz, dag'al; cold /hot/ blooded – sovuq /qiziq/ qon; a heart of stone /flint/) –

toshhurak, mehri qattiq kabilarni ajratish mumkin [2] .

Biz ko'rib chiqqan manbalarda fe'l komponentli idiomalar ko'pchilikni tashkil etadi. Fe'l komponentli idiomalar o'z tuzilishi jihatidan ish harakat va uning majoziy ma'nosi orqali ot bilan bog'lanishi asosida yuzaga keltiriladi. Masalan, to lie on smb's head iborasini oladigan bo'lsak, to lie –yotmoq ma'nosini anglatadi. Yotmoq so'zi bosh so'zi bilan birikishi natijasida “boshda yotmoq” tushunchasi kelib chiqadi. “Boshda yotmoq” tushunchasining ma'juziy obrazlilikligi kelib chiqadi.

Birovning boshida yotmoq birovning boshiga kelib tushgan narsalarni anglatadi. Uning asosida esa o'zbeklar leksikasiga xos bo'lgan “boshiga tushmoq” ma'nosi kelib chiqadi. Endi mazkur iboraning o'zbekcha variantlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, o'zbekchada ham “yotmoq” hamda “bosh” so'zlari mavjud. Agar ularni to'g'ridan-to'g'ri birlashtirsak, “boshda yotmoq” tushunchasi kelib chiqadi. Ammo o'zbeklar uchun bu

tushuncha g'aliz tushunchadir. O'zbeklarda boshqa bir ibora – "boshiga tushmoq" mavjud va bu ibora ingliz iborasining mazmunini to'liq ifoda etadi. Faqat o'zgarish fe'l shaklida yuzaga keladi. O'zbekchalashtirilgan fe'l boshqa mantiqan mos keluvchi fe'l bilan almashtiriladi. O'zbekcha variantda ham iboraning tuzilishi bir fe'l va bir otdan tashkil topadi.

Demak, fe'l komponentli iboralarda uning ikki asosiy qismi fe'l va otga monand o'zbek tilidagi qat'iylashgan fe'l va ot o'zaro birikib ketgan qat'iy tuzilishi qidiriladi. Masalan:

To use one's brains – miyani ishlatmoq

To make smb's heart bleed – yuragini qon qilmoq

To go in at one ear and out from other – bir qulog'idan kirib, ikkinchisidan chiqmoq

To eat one's head – birovning boshini yemoq, boshiga yetmoq

To have the heart (to do or say smth) - biror ish qilish yoki so'zlashga jur'at etmoq.

Fe'l komponentli idiomalarda fe'l mazmunan keng ma'nodorlikni namoyon etadi.

Ot esa konversiya asosida tashkil bo'ladi, ya'ni o'zining shaklini o'zgartirmagan holda fe'l bilan birikadi, ko'pchilik hollarda konversiya ega uchun asos bo'lib xizmat qilgan fe'l asosida yuzaga keltiriladi (a laugh, a smoke, a look, a walk, etc.). Ya'ni bunday birikuv modellashtirilgan tartib asosida tashkil qilinadi.

Bunday qurilmaning barcha a'zolari bir marotabalik biror sa'yi-harakatni amalga oshirishga, masalan, to make a laugh, to have a look, yoki mana shu sa'yi-harakatni takrorlash asosiga qurilgan bo'ladi, to take strolls. Fe'l komponentli iboralarda uning tuzilishi tizimlashgan bo'ladi. Mana shu tizim asosida yana ko'plab turli tuman boshqa iboralarni erkin shakllantirish imkoniyati ochiq qoldiriladi [3]. Ammo boshqa tarafdin, bunday struktura ichida keng ma'nodorlikka ega bo'lgan fe'lni o'zgartirish aslida ancha chegaralangan bo'ladi. Masalan, to take a run deyish mumkin, ammo uni to have/make a run ga aylantirish umuman mumkin emas. Demak, bunday iboralarda ma'lum tartib asosidagi turg'un struktura xosligi saqlanib qoladi.

Idiomalar tarjimasiga xos bo'lgan o'rinlardan biri bu idiomalar tarjimasida sintaksis talablarining qay darajada bajarilishi va qayta tiklanishi muammosidir. Chunki idiomalar tarkibida turg'un sintaksisli, ya'ni turg'un gap tarzida kelgan idiomalar ham uchray turadi. Asliyat bilan tarjimada agar asliyat turg'un sintaksis bilan kelgan bo'lsa, ana shu sintaktik qurilishni qayta shakllantirish lozimdek ko'rinadi. Ammo mazkur sintaksis qurilishi idioma ekanligi anglash idioma qurilishi va uni ifoda qilish bo'yicha avvallari ta'kidlangan o'rinni esga olishga yana bir bor majbur etadi. Chunki idioma tarjimasida bosh omil til shaklini emas, balki mana shu til vositasida anglashilgan bosh mazmunderlikni tarjima qilishni taqozo etadi.

Shu bois, tarjimon ikki yo'lni tutishi mumkin. Ya'ni, bir tomondan, tabiiy asliyatdagi sintaksis qurilmasini, ya'ni turg'un gap strukturasi qayta shakllantirishga sa'y-harakat qilish darkor. Ammo bu jarayonda idioma mazmuniga umuman putur yetmasligi lozim bo'ladi. Ya'ni gap qurilishi qayta shakllantirish jarayoni uning mazmuniga mutlaqo salbiy ta'sir o'tkazmasligi lozim. Ikkinchi tomondan esa tarjimon tarjima qilish va idiomaning ekvivalentini topish jarayonida asosan uning mazmun qirrasiga o'z e'tiborini qaratishi va idiomaning mazmun jihatidan ekvivalentini yaratishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduazizov A. Tilshunoslikka kirish. Toshkent: - Sharq, 2010. 60-92-b.
2. Amosova N.N. Основы англиской фразеологии-LGU, 2013
3. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка- Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз. – 2-е изд., перераб. – М.: Высш. шк., Дубна: Изд. центр "Феникс", 1996 - 381 с
4. Longman dictionary of English Idioms –first edition. 2019
5. Rahmatullayev Sh. Sistem tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Universitet 2007
6. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik –Toshkent 2007